

TIQXMMI Qarshi filialida TIQXMMI Iqtisodiyot kafedrasining filiali tashkil etiladigan bo'ldi

TIQXMMI Qarshi filiali O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-maydagi "Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining Qarshi filialini tashkil etish to'g'risida"gi 437-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan. Hozirgi kunda filialda 1 ta fakultet, 4 ta kafedra, 9 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, 4 ta sirtqi ta'lim yo'nalishlari, 3 ta magistratura mutaxassisliklari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Joriy yilning 29-iyun kuni Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining "Iqtisodiyot" kafedrasida dosenti Yunusov Iskandar Orifovich hamda kafedra assistenti Ko'charov Jahongir Ovlayorovichlar filialga tashrif buyurib, tayanch institutda faoliyat yuritib kelayotgan "Iqtisodiyot" kafedrasining filialini TIQXMMI Qarshi filialida tashkil etish to'g'risida yig'ilish o'tkazdi.



Yig'ilishda so'zga chiqqan TIQXMMI dosenti I.Yunusov kafedraga pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga layoqati bor, bilim va tajribaga ega amaliyot xodimlarida kafedrada ishlash qiziqishini uyg'otish orqali kadrlar zaxirasini yaratish va yosh xodimlar ichidan qobiliyatli, bilimli, intiluvchan va tashabbuskorlarini aniqlab, ularni bosqichma-bosqich lavozimlariga tayinlashga oid takliflar berib o'tdi. Chunonchi, 2021-2022 o'quv yilidan boshlab filialda TIQXMMI "Iqtisodiyot" kafedrasining filiali o'z faoliyatini boshlaydigan bo'ldi.

TIQXMMI matbuot xizmati